

---

## Farg'ona shahar aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash yo'lidagi ishlar qizg'in pallada

300 mingdan ziyod aholi vakillari istiqomat qiladigan Farg'ona shahrida 73 ta mahalla fuqarolar yig'ini bor. Hududda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash qamrovi 99,6%ni tashkil etadi.

Prezidentimizning "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qaroriga ko'ra shahar hududidagi 13 ta mahalla fuqarolar yig'inida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi sa'y-harakatlarni amalga oshirish uchun respublika budjetidan 17 milliard so'm mablag' ajratilgan.

2023-04-13 16:17:25